

PISA BAHOLASH DASTURINING AN`ANAVIY BAHOLASH USULLARIDAN USTUNLIKLARI

*Shahrisabz Pedagogika Instituti Tasviriy san`at va amaliy bezak san`ati
yo`nalishi 2-kurs magistranti*

Xolbekova Baxtigul Abdunabiyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada baholash dasturlari haqida va ularning ahamiyati haqida to`xtalinib , Xalqaro Pisa baholash dasturining an`anaviy baholash usullaridan ustunliklari va xususiyatlari borasidagi qarashlar va nazariyalar aytib o`tiladi.

Kalit so`zlar: xalq ta`limi tizimi,Pisa, vaqt tejamkorligi, matematik savodxonlik,ma`lumot, shaxs, Xalqaro dasturlar.

Baholash ta`limiy maqsadlarga qay darajada erishganligini namoyish qilish imkonini beradi.Baholash – o`lchash jarayoni : bunda bilim,ko`nikma, kompetensiyalar o`lchanadi. “Baholash tizimi o`rganish jarayonini boshqaradi “ yoki “ Baholash – bu dum ,ta`lim standartlari – tana bo`lsa,dum tanani likillatadi “ degan olimlarning qarashlari baholash tizimini kuchli o`ringa ega ekanligidan dalolat beradi.Ta`lim sifatini va o`quvchilarni bilim darajalarini doimiy ravishda nazorat qilib borish ta`lim jarayoniga muhim yangiliklar kiritish uchun asos bo`ladi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 –yil 10-dekabdagi 997-son “ Xalq ta`limi tizimida ta`lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida “gi qaroriga muvofiq Ta`lim tizimida tub burilishlar yuz bera boshladi.Xalq ta`limi tizimida ta`lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o`rnatish ,o`quvchi-yoshlarning ilmiy –tadqiqot va innovatsiya faoliyatini ,eng

avvalo, yosh avlodning ijodiy g`oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo`llab-quvvatlash va rag`batlantirish maqsadida turli Xalqaro baholash dasturlari tashkil etildi. Shulardan biri Pisa baholash dasturi hisoblanadi

PISA – o`quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini jahon davlatlaridagi maktab o`quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo`llay olish mahoratini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo`lib, asosiy maqsadi - 15 yoshli o`quvchilarning o`qish savodxonligi, matematika, tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar ko`rinishida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o`quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashlariga, olgan bilimlarini hayotda qo`llay olish imkoniyatlariga baho berish va keyinchalik bu ko`nikmalarni hosil qilishga undash hisoblanadi. Ushbu dastur 1997 –yilda joriy etilgan bo`lib, har uch yilda bir marta o`tkazib kelinadi. PISA dasturi ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga ta'sir ko`rsatib, har bir davlat o`tkazgan tadqiqot natijalari asosida o`zining ta'lim sohasidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqeyini taqqoslaydi. Ta'lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirishda o`z strategiyasini belgilab oladi. PISA tadqiqoti monitoring tadqiqoti bo`lib, u turli mamlakatlardagi ta'lim tizimlarida sodir bo`layotgan o`zgarishlarni aniqlash va solishtirish, ta'lim sohasidagi strategik qarorlar samaradorligini baholash imkonini beradi. PISA testlari 5 ta yo`nalish bo'yicha *o`qish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar, hamkorlikda muammolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik* o`tkaziladi. Testlarda asosiy e'tibor o`quvchilarning bu yo`nalishlar bo'yicha eng asosiy va muhim tushunchalarni bilishi, bazaviy bilim va ko`nikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi. An`anaviy ta'lim dasturlaridan ancha keng qamrovli ekanligi ; vaqt tejamlorligi ; dars sifati va samaradorligi; savod chiqarish va yozish texnikasi qulayligi ; model tizimlarining yangi qirralari; interfaol metodlarning keng qamrovligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

PISA sinovlarida to`rt xil sinov usulidan foydalaniladi:

- 1) Bir javobli testlar;
- 2) Bir nechta javobli testlar;
- 3) Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar;
- 4) Biror muammoning yechimi bo'yicha o'quvchi fikri (odatda bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar bo'ladi, o'quvchi javobi test tuzivchi javobiga aynan mos kelishi talab qilinmaydi, o'quvchi ijodkorligi qo'llab quvvatlanadi).

Bundan tashqari testlar bilan bir vaqtda o'quvchilardan anketalar ham olish nazarda tutilgan. PISA xalqaro dasturida asosiy yo'nalishlar sifatida quyidagilar aytiladi: **O'qish savodxonligi:** *Insonning matn shaklida berilgan ma'lumotlarni tushina olish va ularga reaksiya bera olish ko'nikmasi, jamiyat hayotida faol qatnashish jarayonida o'qigan ma'lumotlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalana olish, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati.* Bu yerda, o'qish savodxonligi tushunchasi keng ma'no kasb etadi. Bu yo'nalish maqsadi o'quvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo'llanmalar, geografik kartalar kabi rangba-rang tematikadagi, tarkibida matnni ochib berishga mo'ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar berilgan matnni tushinishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho berish va o'qiganlari haqida o'z fikrini bera olishi kabi kompetensiyalarini aniqlash hisoblanadi. **Matematik savodxonlik:** *Insonning matematikaning o'zi yashayotgan olamdagi o'rnini bilishi, matematik jarayonlarni to'g'ri va to'liq asoslay olishini tekshiradi. Shaxsning matematikadan yaratuvchan, qiziquvchan va fikrlovchi insonning hozirgi va kelajakdagi matematik bilimlarga bo'lgan ehtiyojini qondira oladigan darajada foydalana olishini ta'minlash bu bo'limning asosiy maqsadidir.* Bu bo'limdagi savodxonlik terminidan bu bo'lim maqsadi odatda maktab dasturida beriladigan bilimlarni qay darajada o'zlashtirganini aniqlash emasligini ko'rsatish uchun foydalanilgan. Asosiy e'tibor matematik bilimlardan turli xil hayotiy vaziyatlarda fikrlash va

intiutiv qaror qabul qilish talab qilinadigan turli uslublaridan qo‘llagan holda foydalana olish nazarda tutiladi. Lekin bu turdagi savollarga javob berishda maktab dasturida beriladigan bilim va ko‘nikmalar zarur bo‘lishi mumkin. Bu yo‘nalish sinovlarida odatda hayotning turli sohalarida (tibbiyot, turar joy, sport va hk.) duch kelinishi mumkin bo‘lgan matematikaga oid vaziyatlar taklif qilinadi. **Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi:** *Hayotiy hodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kompetensiyasi. Bu xulosalar atrofimizdagi olamni tushinish va inson faoliyati natijasida unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni anglab yetish, shunga ko‘ra kerakli qarorlar qabul qila olish ko‘nikmasini rivojlantirish bu bo‘limning asosiy maqsadidir.*

PISA baholash dasturi kreativ g‘oyani ishlab chiqish jihati o‘quvchilarning turli sohalar bo‘yicha munosib va original g‘oyalarni topish (masalan, original hikoya g‘oyasi, g‘oyani o‘ziga xos usulda vizual ifodalash, ilmiy yoki ijtimoiy muammoning o‘ziga xos yechimi) qobiliyatiga e‘tibor qaratadi.

Boshqacha aytganda, o‘quvchilar oldiga boshqa insonlar, hattoki o‘ylab ko‘rmagan munosib yechimni taqdim etish vazifasi qo‘yiladi. Munosiblik mezoni javob vazifaning asosiy talablariga mos bo‘lishi vazifa cheklovlariga (mavjud bo‘lsa) rioya etishi hamda minimal tarzda foydalilikning aks etishi kerak degani. Ushbu jihatga oid vazifalarda, talabalarga ochiq ssenariy beriladi va ular birmuncha batafsil shaklda yangicha g‘oyani taqdim etishi lozim. Kreativ fikrlash bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanish nafaqat odatiydan voz kechib, yangi narsani ishlab chiqish, balki niyat qilingan maqsadga muvofiq ishlaydigan narsani yaratish hamdir. Mezonga solingan kognitiv jarayonlar yangi bo‘lish bilan birga ayni damda munosib, samarali va ishlaydigan g‘oyalarni yaratishni qo‘llab-quvvatlaydi. Ular g‘oyalardagi kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilishi mumkin va ko‘pincha kreativ mahsulotni takomillashtirish maqsadida g‘oya berish va

birlamchi g'oyalarni qayta shakllantirishga olib keladi. Shu sababli baholash va takomillashtirish kreativ fikrlash jarayonining markazida turadi. O'zgaralar

IFODALASH

(yozma yoki vizual sohalarda)

	Yozma	Vizual
Turli g'oyalarni ishlab chiqish.	O'quvchi berilgan shaklga (masalan, rasm, karikatura yoki surat) turfa sarlavhalar yozadi, bu o'sha shaklning turlicha izohini anglatadi.	O'quvchi berilgan shakllarni usullarda terib, o'zgacha yangi vizual m hosil qiladi (masalan, logo yoki maxsus) yoki o'quvchi ma'lumotni ko'rgazmali keltiradi (masalan, infografika).
Kreativ g'oyalarni ishlab chiqish.	O'quvchi san'atga oid asarga asar yaratadi	O'quvchi maktabda o'ta o'ziga xos (

g'oyasining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va takomillashtirish ko'nikmasi,

shuningdek, bilim yaratishning har qanday jamoaviy harakatining muhim qismidir.

Xulosa qilib aytganda ,Pisa baholash dasturlari an`aniy baholash dasturlaridan kreativligi ,samaradorligi , sifati ,bilim –ko`nikmalari bilan alohida ajralib turadi.Butun dunyoda xalqaro baholash dasturlari juda boy imkoniyatlar va maqsadlarni ko`zlab , tashkil etilmoqda.

◀ **KREATIV FIKRLASH JIHATLARINI SOHALAR BO‘YICHA**

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bu savodxonlik asosi bizning maktablarimizda fizika (astronomiya elementlari bilan birga), biologiya, kimyo va geografiya fanlari o`qitilish jarayonida berilishi ko`zda tutilgan.

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining —O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risidagil 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni

3. 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

4. Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2009. OECD, 2009

5. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta`limi tizimida ta`lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.

6. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 243-247.

7. Abdirimova, I. K. (2020). Loyihalash faoliyatining bosqichlari loyihaga yondashuv mohiyati va maqsadlar uyg.,unligi. *Science and Education*, 1(Special Issue 2). 18-26.22

8. Abdirimova, I. Methods and tools for the implementation of project activity in education.

9. И. К. Абдиримова Гармония образования в формировании любви к стране у молодежи *Academic Research in educational sciences volume 2 (Issue 2) 2021 ISSN: 2181-1385, 1416-1421*

10. Кахарова, Н. Н. Дидактический материал как средство повышения познавательной деятельности учащихся на уроках русского языка / Н. Н. Кахарова // *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации : сборник статей LXIII Международной научно-практической конференции, Пенза, 15 февраля 2023 года. – Пенза: Наука и Просвещение (ИП Гуляев Г.Ю.), 2023. – С. 170-172. – EDN FLGUQW.*